

SEVIMLI CHOLG'ULARIMIZ AJDODLAR NIGOHIDA

Xudoynazarova Odinaxon Abdullayevna

Toshkent viloyati Ohangaron shahar

1-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa madaniyati o'qituvchisi

Isoqova Guljahon Abrorjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqa san'ati, uni cholg'u yo'llarining o'ziga hos taraflari, yaratilish tarixi va buyuk ajdodlarimiz bilan birgalikda yuzaga kelgan cholg'u voqeliklari bilan boyitilgan. Shu bilan birga musiqa darslarida, musiqiy cholg'u asboblari o'rganishni kuchaytirish, unga muhabbat uyg'otish va ma'lumot berish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, ritm, nazariy, cholg'u, tor, navo, tovush, alteratsiya, nota, ohang, xofiz, maqom, shashashmaqom, soz, musiqiy parda.

Musiqa cholg'u asboblari -musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari. Musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr va boshqalar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir Musiqa cholg'u asboblari sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazon, tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'u asboblari sadosining sifati, ko'pincha, muayyan cholg'u asbobining shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bog'liq. Musiqa cholg'u asboblari qadimdan qamish, bambuk, yog'och, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yong'og'i, qovoq va boshqalardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qo'shimcha vositalar (mas, surdinayaan foydalanish), ijrochilik uslublari (mas, torli sozlarni tirnab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), ba'zi musiqa bezaklari yordamida o'zgartirish mumkin. Paydo bo'lishi insoniyat tarixining ilk davrlariga to'g'ri keladi. Mukammallanishi esa musiqa san'ati va ijrochilikning rivojlanishi hamda musiqa cholg'u asboblari ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti bilan bog'liq.

O'rta osiyo xalqlariga nisbatan janubiy Xitoyning Sintzyan viloyatida yashovchi uyg'urlar o'rtasida keng tarqalgan turi Qashqar Rubobi deyiladi. Buxoro, Tojikiston va Afg'onistonda tarqalgan Rubobning yana bir turi : Afg'on rubobi, tojik rubobi yoki Buxoro Rubobi deb ham ataladi. Bunda asosiy tordan tashqari rezonans beruvchi qo'shimcha torlar ham bor.

Dutor - forscha "ikkita tor" degan ma'noni anglatadi. Dutor eng qadimiy cholgulardan hisoblanib hatto tanburning ibtidoiy kurinishidan darak beruvchi cholg'u degan tahminlar ham uchraydi. Hatto shunday rivoyat ham bor: Tunda Aflotun shogirdlaridan pinhona o'z hujrasida bir cholg'u sozini yasayotgan vaqtida, uni qanday soz yasayotganini o'rganib olish uchun shogirdi Arastu ohista tuynukdan mo'ralaydi ammo unga cholg'u ko'rinmaydi shunda u cholg'uni devorga sham nuridan tushayotgan soyasidagi shaklga qarab, tonggacha u ham pinhona bir musiqiy cholg'uni yasashga kirishadi. Tongda Arastu yasagan cholgusini ustosi Aflotunga olib borganda shu narsa ma'lum boladiki tunda Aflotun kosasi katta dastasi ingichka cholg'u yasagan bo'ladi Arastu esa aksincha soyada ko'ziga dastasi yo'g'on, kosasi kichkina ko'ringan shakldagi cholg'uni yasagan bo'ladi. Shundan Aflotun yasagan ingichka dasta katta kosali cholg'u -Dutor, Arastu, uni soyasidan qarab yasagan kosasi kichik, dastasi yo'g'on cholg'u esa Tanbur bolib qolgan ekan. O'tmish risolalarda Dutor haqida yetarli ma'lumotlar kam. Dutor Tanburga nisbatan yengil ijro etilganligi sababli xalq ichida eng ommaviy cholg'u bo'lib kelgan. Pardalarining pastligi, soni jihatidan kamligi tufayli uni ko'pincha ayollar qo'llab kelganlar va honaki, yengil kuy qo'shiq ijrosida, folklor yollarida foydalanganlar. Dutor kosasi tut, dastasi o'rik daraxtlaridan yasaladi. Kosasi yupqa qovurg'alardan yeg'ib bir-biriga yopishtirib ishlanadi. Dasta bilan kosaxonasuni esa bo'g'iz ulab turadi. Dastasi ingichka, uzun bo'lib ingichka bog'lama pardalar bog'langan bo'ladi. Ipakdan qilingan ikki torlari kvarta, kvinta, unison ba'zan oktava qilib sozlanadi. Asosiy sozlanish Munojot (kvinta), Tanovor (kvarta) deyiladi.

Dutor bizning cholg'ularimiz ichida ikkala torini barmoqlar bilan barobar bosib, birinchi torga ikkinchi torni jo'r qilib chalinadigan yagona qo'sh ovozi cholg'u hisoblanadi. Past ammo o'ta mayin yoqimli ovozi bor, dator xalq yo'lidagi kichik hajmli kuy qo'shiqlar ijrosiga mo'ljallangan. Xalq musiqalari ichida dator uchun mahsus kuylar koplal uchraydi. "Qo'shtor", "Dutor navosi", "Dutor bayoti" va h.k.

Manbalarda kelishicha Tanbur so'zi - forscha yurakni tirnovchi yani tan - yurak, bur-tirnash degan ma'noni anglatadi yoki tanbur so'zi yunoncha tanbura so'zidan paydo bo'lgan deb yoziladi Ammo bu fikrlar naqadar haqiqatligi aniq emas. Fitratning tarificha esa Tanbur O'rta Osiyo xalqlari cholg'usi-do'n bira tanburni qadimiy bir ko'rinishi ekanligini va u judayam qadimiy cholg'u ekanligi ma'lum bo'ladi. Darvish Alining yozishicha qadimda Tanbur ikki torli bolib unga keyinchalik uchinchi tor qo'shilgan, shundan bo'lsa kerak Tanburni ba'zi kitoblarda Setor ya'ni uchta torli deb nomlanganligi ham e'tiborga loyiqdir. Bizning milliy cholg'ularimizning eng asosiysi hisoblanadi. Chunki qadimda bizning maqomlarimiz aynan Tanbur cholgusida ijro etilgan. Tanbur pardalarining joylashuvi maqom asarlarimizning asosi ya'ni tovush qatorini mezoni hisoblanib uning ijro imkoniyati esa ohanglarimiz talqinida betakror o'rin egallaydi. Tanbur tut yog'ochidan yasaladi. Kosasi (bosh qismi) nok shaklida o'yilib unga uzun dasta o'rnatiladi. Kosasi yupqa yog'och qopqoq bilan yopiladi Dastasiga yo'g'on ichak pardalar bog'lanib yuqori tovushlar uchun qopqog'iga xas pardalar yopishtiriladi. Pardalarining yo'g'onligi ijroda simlarni ezib maqomlarda uchrovchi mayda intervallarni ifoda etishda ota qulay va tanburga hos nola va mungli sadolanishni ta'minlashda muhim hisoblanadi. Tanburni jezdani to'rtta simi bo'ladi. 1,2,4 torlari unison 3 chisi kvarta kvinta sozlanadi, qadimda esa tanburni yana boshqa sozlash tartibi bo'lib u maqomlarga mahsus moslangan bo'lgan. Tanburni asosan katta oktavada fa, sol tuvushlariga sozlanadi. Ovoz hajmi ikki yarim oktavaga yaqin. Tanbur o'ng qo'lining ko'rsatgich barmog'iga mahsus temir nohun kiyib chalinadi. Chalinganda faqat birinchi simi chertib chalinadi, qolganlari esa sadolanib turish uchun xizmat qiladi. Maqom ijrochiligidan Tanbur yakka holda kuy yo'llarini ijro etishda, yoki, hofizlarning qo'llarida yetakchi cholg'u sifatida keng qo'llanilib kelingan. Tanbur sozi tarixda uch xil sozlangan, ya'ni Rost maqomida 3-simi kvinta past qilingan Buzruk, Dugoh, Iroqda kvarta past, Navo va Segohda sekunda pasaytirib sozlangan. Hozirda esa Tanbur asosan kvarta, kvinta qilib sozlanadi. Tanbur asosan maqom yo'lidagi asarlarni ijro etishga mo'ljallangan cholg'u sozi hisoblanadi.

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasida tarqalgan qadimiy puflama yog'och hcolg'u asbob. Surnay yolg'z shuningdek nog'ora, karnaylar bilan ham birgalikda chalinadi. manbaalarga ko'ra XV, XVII asrlardan boshlab "chang" sozi musiqa hayotimizda ma'lum o'rin egallay boshlagan. Ungacha esa "chang" iborasi o'zbek hamda tojik musiqa madaniyatida butunlay o'zga soz, tirnab chalinadigan zamonaviy yevropacha arfaning bizda keng ishlatilgan qadimiy kichik hajmdagi namunasini anglatadi. Jumladan Alisher Navoiyning buyuk asari "Xamsa"ning "Sabbai sayyo'r" dostonidagi "chang" iborasi ham arfa tusidagi cholg'u sozini aniqrog'i qo'l arfasini anglatgan bo'lib, uning mohir ijrochilari sifatida Dilorom kabi ayol obrazlari tasvirlangani bejiz bo'lmagan. O'sha davrlarga xos arfasimon chang deyarli xotin-qizlarga mansub cholg'ulardan biri sifatida hatto, eramizdan oldingi asrlardayoq ishlatilgan. Ammo XVII asrlardan keyin bu qo'l arfasi ijrochilikdan chiqib boshlagan va o'rmini o'zga soz maxsus tayyoqchalar bilan urib chalinadigan trapetsiya shaklida chang cholg'u asbobi egalladi. XVII asrda yashab ijod qilgan Darvish Ali Changiyning risolasida musiqa nazariyasi haqidagina to'xtalib o'tmasdan, turli davr ijrochilari va saroy qoshida keng tarqalgan musiqa sozlaridan bo'lgan tanbur, chang, nay va qonun haqida ham to'xtalib o'tadi. U sozlarni bir-biriga taqqoslab changni "sozlarning kelinchagi" deb ataydi. Darvish Ali-ibn Mirzo Ali-ibn Xo'ja Mahmud-Marvarid shu sozning mohir ijrochisi edi. U yoshligidan changga mehr qo'ydi va shuhrat qozondi. Shu davrning yana bir mohir changchisi: Mavlono Zaynuliddin Rumiy edi. Darvish Alining ta'kidlashicha, u juda ko'p peshrav va kuylar ijod qilgan. Eng ko'zga ko'rinarlisi 3 ta peshrav edi:

Birinchisi: Ehson. Husayniy maqomining pardalarini o'z ichiga oladi.

Ikkinchisi: Soqil. Iroq maqomi pardalari asosida ijod qilingan.

Uchunchisi: Peshravi-ufor. Husayniy maqomining xonalaridan tarkib topgan.

Yana Darvish Ali Changiy qadimda (changni) kelib chiqishi haqida shunday yozadi: chang qadimiy soz bo'lib, Mesopotamiyadan tortib, to Xitoygacha bo'lgan juda katta hududda ishlatilgan. Buxoroda (XVI asr) Shayboniylardan bo'lgan Abdullaxonning zamondoshi Xo'jai Kalon (Buyuk Xo'ja, Shayx Xo'ja Sa'd) og'ir dardga giriftor bo'ladi. Tabib Sulton Muhammad uni davolab, kasalni yengishda chang mashqlarini eshitishni

tavsiya etadi. Xo`ja Sa`d Darvish Alini huzuriga chorlaydi. Darvish Ali uch oy davomida Sa`d qoshida chang chaladi. Xo`ja butunlay tuzalib ketadi. Qadimda buyuk Nushiravon zamonida (531-579) mashhur changchi Piri Changchi yashagan. Eron arablar qo`liga o`tadi, undan keyin xalifa Umar Eron musiqasini ta`qib ostiga oladi. Piri Changchi o`zini hech kimga keragi yo`qligidan xafa bo`lib, Madinaga Yasrab qabrini ziyorat qilgani boradi. U o`z yoniga changni qo`yib, nola qila boshlaydi: “Men doimo sen uchun chaldim, endi meni ta`qib ostiga olishgani uchun seni oldingga oxirgi marta chalish uchun keldim. Bir narsani sendan so`rayman, ipak torlarimgagina haq berishsa”, yig`lab va qattiq oh urib o`zini oxirgi mashqini ijro etadi. Changni boshiga qo`yib uxlab qoladi. Shu vaqt halifa Umarga g`oyibdan ovoz keladi: “Bizning bir do`stimiz bor, u Yasrabning qabri (ustida) yonida. Ul kimsaga xazinadan 700 dinor olib borib ber. Yana zoriqsa yana tashrif buyursin”. Umar 700 dinorni olib yasrab qabriga boradi. U yerda Piri Changiydan boshqa kimsa yo`q edi. U hayron bo`lib tursa, Changiy uyg`onib qoladi. Umar unga 700 dinorni beradi va aytadi: Alloh seni o`ziga do`st deb bilibdi, men ham sening do`stingman. Boshingga mushkil ish tushsa qoshimga kelgin. “Sening soz chertishing Egamni o`ziga rom etdi” deydi. Bu voqea to`g`risida taniqli fors shoiri Jaloliddin Rumi (1273 yil) ham she`rlar yozgan.

Doira (childirma, chirmanda) - o`zbek, tojik va uyg`ur xalqlari orasida keng tarqalgan. Doira ansambl va yakka holda ham ijro etiladi. Doira jo`rligidagi raqslar o`zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Shashmaqom doira usulisiz ijro qilinmaydi. Buxoroda har bir maqom aytuvchi hofiz, maqom usullarini doirada ustalik bilan o`zlashtirganlar va o`z ashulalariga jo`r bo`lganlar. Shashmaqomdagi har bir kuyning o`ziga xos usuli bor. Shunga ko`ra, usullar shu kuy nomi bilan yuritiladi. Masalan: “Usuli Muhammad” (Muhammad usuli), “Usuli Talqin”, “Usuli Tasnif” va boshqalar.

Qayroq O`rta Osiyo xalqlari o`rtasida tarqalgan urma musiqa asbobi. Yapaloq tekis qilib silliqlangan to`rtta qayroq toshdan iborat. Odatda qayroqni raqsga tushuvchining o`zi chaladi.

Urish chalinadigan o`zbek xalq cholg`u asboblari, nog`ora sopoldan yasali, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog`ora ma`lum bir sozga ega emas. U O`zbekistondan tashqari boshqa sharq mamlakatlarida ham ishlatiladi.

Chanqovuzni metallardan va tuya suyagidan tayyorlangan turlarining mavjudligi ushbu cholg`u asbobi metall iste`moli boshlangan davrdan oldin ham mavjud bo`lganligi ishora qilsa, chanqovuzga aynan o`xshash cholg`ularning sharqiy turkiy xalqlar, shimol xalqlari, Markaziy Osiyo va tatar, boshqird xalqlari, hatto olmonlarda ham uchrashi uning juda qadimiy cholg`u ekanligini isbotlaydi. Chanqovuzni metallardan va tuya suyagidan tayyorlangan turlarining mavjudligi ushbu cholg`u asbobi metall iste`moli boshlangan davrdan oldin ham mavjud bo`lganligi ishora qilsa, chanqovuzga aynan o`xshash cholg`ularning sharqiy turkiy xalqlar, shimol xalqlari, Markaziy Osiyo va tatar, boshqird xalqlari, hatto olmonlarda ham uchrashi uning juda qadimiy cholg`u ekanligini isbotlaydi.

Adabiyotlar:

- 1.O'zbek xalq cholg'ulari.O'quv qo'llanma
- 2.PanjiyevQ.B,KarimovaD.A-Musiqa ma`daniyati fani o`qituvchilari uchun.
- 3.O'zbek an'anaviy cholg'ulari:Ziyouz.com
- 4.Ijtimoiy axborot ta`lim portal:www.ziyouz.uz
- 5.Maktablar o`quvchi va o`qituvchilar sayti:www.edunet.uz
- 6.O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi:www.uzedu.uz
- 7.Cholg'ushunoslik: Ziyouz.com.
- 8.Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G., -T. Muzika, 2005. -80 s.
- 9.D.Soipova Musiqadan o'qitish nazariyasi va metodikasi O`quv qo'llanma.T.2009 O`zDK.